



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2023-yil "05" 01 № 1-9-6/01

Qibray tumani

**Toshkent davlat agrar universitetining xarid komissiyasini tuzish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi 684-son Qonunining samarali ijrosini ta'minlash, Toshkent davlat agrar universitetida xarid qilish tartib-tamoyillarini qonuniy, adolatli, xolis va samarali amalga oshirish hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2023-yilda Toshkent davlat agrar universitetida xarid qilish tartib-tamoyillarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Xarid komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi a'zolari o'z faoliyatida quyidagilarni amalga oshiradi:
xarid qilish tartib-tamoyillarini belgilangan tartibda qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish;

xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullarini qo'llab g'olibni (g'oliblarni) tanlash;

Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-tamoyili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmaslik;

Xarid komissiyasi a'zolari xarid qilish tartib-tamoyillari ishtirokchilari bilan affillanganlik masalasini ko'rib chiqishi kerak, agar Xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'ymaslik;

xarid qilish hujjatlarini kelishish, takliflar qabul qilish muddatlarini belgilash, takliflarni ochish tartib-tamoyillarini belgilash, takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilash;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilash, xarid qilish tartib-tamoyili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshirish;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazish, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish; xarid qilish tartib-tamoyillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilash yoki savdoni amalga oshmagan deb topish.


Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va Qishloq xo'jaligi vazirligining mutaxassislarini jalb etishi mumkin.

3. Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-tamoyillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliliigi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

4. Mas'ul kotib Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini tashkil etadi hamda komissiya yig'ilishlarida ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni hamda qilinadigan ishlar ilovada ko'rsatilgan xarid komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Birinchi prorektor



S.Islamov

Kiritdi:

Bosh hisobchi



A.Botirov

Kelişildi:

Yuridik bo'lim boshlig'i



B.Xusenov

Reja-moliya bo'limi boshlig'i



R.Niyazova

Korrupsiyaga qarshi kurashish
"Komplaens-nazorat" tizimini
boshqarish bo'limi boshlig'i

T.Azizxo'jayev

Kadrlar bo'limi boshlig'i



D.Xalmirzayev

Yoshlar bilan ishlash,
ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi boshlig'i



D.Mustafakulov

Texnik foydalanish va xo'jalik
bo'limi boshlig'i



F.Babadjanov

ATM bo'limi boshlig'i



S.Abduazimov

Bosh muhandis



S.Usmanov

Bosh energetik



A.Choriyev

Tarqatilsin: Yuridik bo'limiga, Buxgalteriya bo'limiga, Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limiga, Reja-moliya bo'limiga, Devonxona bo'limiga. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga.

Toshkent davlat agrar universitetining
2023-yil 05 - 01 dagi
1-9-6/01 -sonli buyrug'iga
ILOVA

**Toshkent davlat agrar universitetida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil
etish va o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi
TARKIBI***

Rais A.Abduvasikov	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
Rais o'rinbosari A.Botirov	Bosh hisobchi
Mas'ul kotib A.Muhiddinov	Xaridlar bo'yicha bosh mutaxassis
A'zolar	
B.Bekmurodov	Yuridik bo'lim boshlig'i o'rinbosari
T.Azizxo'jayev	Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i
R.Niyazova	Reja-moliya bo'limi boshlig'i
S.Abduazimov	ATM boshlig'i
F.Babadjanov	Texnik foydalanish va xo'jalik bo'lim boshlig'i
S.Usmanov	Bosh muhandis
A.Choriyev	Bosh energetik

Izoh:* komissiya a'zolari egallab turgan lavozimini tark etgan taqdirda uning o'rniga kelgan xodim lavozimi bo'yicha komissiya tarkibiga kiritiladi.

****** komissiya raisining ko'rsatmasi bilan xarid qilish tartib-taomillarini qonuniy, xolis va maqsadga muvofiq amalga oshirish yuzasidan komissiya tarkibiga Universitetning boshqa tarkibiy bo'linmalaridan ham a'zolar jalb qilinishi mumkin.